

# TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

“Tikuv buyumlarini konstruksiyalash  
va texnologiyasi” kafedra mudiri  
dots. M.A.Mansurova \_\_\_\_\_

«Tasdiqlayman»  
YEST va D fakulteti dekani  
dots. R.D.Akbarov \_\_\_\_\_  
« 18» fevral 2019 y.

## DIPLOM LOYIHA ISHIGA TOPSHIRIQ

**Talaba:** Yoqubova Maftuna Azim qizi

**Ta'lif yo'nalihi:** Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv  
buyumlari)

**Fakultet:** Yengil sanoat texnologiyasi va dizayn

**Diplom loyiha ishi mavzusi:** Sun'iy mo'ynadan pechvork usulini qo'llab ayollar kiyimi  
to'plamini konstruksiyasi va ishlab chiqarish texnologik jarayonini loyihalash

**Topshiriq** \_\_\_\_\_

(kafedra, korxona, ITI, DNI, tashabbusi bilan)

**Rahbar:** kat.o'q. G.D.Ulkanboyeva

**1. Diplom loyiha ishining qisqacha mazmuni.** Sun'iy mo'ynadan pechvork usulini qo'llab  
ayollar kiyimi to'plami uchun yangi dizayn loyihasini yaratish, konstruksiyasini qurish va  
modellashtirish, tikuv sexi texnologik jarayonini loyihalash, ekologik vazifasini yechish, texnika  
iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash

**2. Diplom loyiha ishining tarkibiy qismlari.**

**2.1. Asosiy qism** (texnologik, konstruktorlik, tadqiqot va boshqa) Muxandis-konstruktorlik  
qismida loyihalanayotgan model material paketini konfektionlash, konstruksiyalash usulini  
asoslab tanlash, dastlabki ma'lumotlarni tanlash, konstruktiv modellash, ishchi xujjalarni tuzish,  
material sarfini hisoblash.

Texnologik qismda asbob-uskuna va tikish usullarini tanlash, texnologik ketma ketlikni tuzish,  
oqim turi va parametrlarini tanlab texnologik sxemani tuzish, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni  
hisoblash, sex planini tuzish.

**Maslahatchi:** dots.M.A.Mansurova

**2.2. Qo'shimcha qismlar:**

Tikuv sexlarida mehnatni muhofaza qilish va ekologik masalalarni o'rganish

Tikuv sexining biznes-rejasini ishlab chiqish.

**2.3. Hisob-tushuntirish matni tarkibi va qisqa mazmuni:**

Hisob tushuntirish matni badiiy-muxandislik, muxandis-konstruktorlik, texnologik, ekologiya va  
iqtisodiy qismlarini nazariy ma'lumotlari, hisoblash metodikasi va hisobi, chizmalar va  
rasmlardan tashkil topadi.

**2.4. Diplom loyiha ishi grafik qismining tarkibi va qisqa mazmuni**

(bajariladigan grafik materialning hajmi):

Diplom loyihasi grafik qismi asosiy model AK va MK chizmasi, asosiy model andazalari,  
asosiy model texnik rasmi va asosiy model qirqimlari, moslik, tartib grafiklari, sex plani, texnik-  
iqtisodiy ko'rsatkichlari

**3. Diplom loyiha ishi himoyasi**

**4. Topshiriq berilgan sana**

18.02.2019 yil

**5. Kafedra mudiri**

dots. M.A.Mansurova

**6. Rahbar**

kat.o'q. G.D.Ulkanboyeva

**7. Bajaruvchi**

Yoqubova M.

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
I. <b>Badiiy muhandislik qismi.....</b>	<b>5</b>
1.1 <b>Texnik topshiriqni loyihalash va bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlarni ishlab chiqish.....</b>	<b>5</b>
1.2 <b>Zamonaviy moda yo'nalishi tahlili.....</b>	<b>7</b>
1.3 <b>Eskiz loyihani ishlab chiqish.....</b>	<b>8</b>
<b>II. Muhandis – konstruktorlik qismi.....</b>	<b>9</b>
2.1 Loyihalanayotgan ob'yekt material paketini konfeksiyonlash.....	9
2.2 Asosiy konstruksiya qurish usulini asoslab tanlash.....	12
2.3 AK chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.....	13
2.4 Asos konstruksiyani qurish va hisobi.....	14
2.5 Loyiha ob'yektini konstruktiv modellash.....	17
2.6 Ishchi hujjatlarni tuzish.....	17
2.6.1 Yangi model andozalarini tayyorlash prinsiplari.....	17
2.6.2 Loyihalanayotgan modelga gazlama sarflash normasining hisobi....	22
<b>III. Texnologik qism</b>	
3.1 Tikuv buyumlarini tayyorlash jarayonini texnologik bog'liqligini tahlili.....	26
3.1.1 Asbob – uskuna va tikish usullarini tanlash va asoslash.....	26
3.1.2 Buyum tikish texnologik tartibini tuzish.....	30
3.2 Ishlab chiqarish oqimini va sexini loyihalash.....	39
3.2.1 Ishlab chiqarish oqimini loyihalash masalasini tuzish. Oqim turini va transport vositalarini tanlash.....	40
3.2.2 Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy – texnik yechimini va dastlabki ma'lumotlarni shakllantirish.....	41
3.2.3 Ishlab chiqarish oqimining tashkiliy – texnologik sxemasini tahlil qilish.....	56
3.2.4 Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy – texnik yechimini iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash.....	57
3.2.5 Ishlab chiqarish oqimini va tikuv sexi planini tuzish.....	59
3.2.6 Qo'shimcha assortimentni hisoblash.....	60
<b>IV. Ekologiya qismi.....</b>	<b>61</b>
<b>V. Iqtisodiy qism.....</b>	<b>66</b>
Xulosa.....	78
Foydalilanilgan adabiyotlar.....	79

## **KIRISH**

Respublikamiz ishlab chiqarish salohiyatini, iqtisodiy ko'taradigan, dunyo bozorida xaridorgir yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yengil sanoatni fan va texnika taraqqiyotga asoslanib eng muhim, eng dolzarb sohaga aylantirish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqilikka erishgandan so'ng, Respublika xalq xo'jaligini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot ishlarining ahamiyati yanada oshib bormoqda va ishlab chiqarish korxonalari jahon fan yutuqlari bazasida takomillashib bormoqda. Bu takomillashuv uni avtomatlashtirish va mexanizatsiyashtirish yangi texnika va texnologiyani qo'llash orqali amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017-yil 14-dekabrdagi “To'machilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish chora tadbirlari”to'g'risidagi PF-5283 sonli farmoni bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik va tikuv tirikotaj sanoatini rivojlantirish kelgusida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish to'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatini modernizatsiyalash va jadal rivojlantirishni taminlash, paxta tolasi va ipak homashyosini chuqur qayta ishslash turlarini kengaytirish maqsadlari takidlab o'tilgan.

Malakali kadrlar va yengil sanoat ishlab chiqarishdagi yangi kompleks Respublikamizning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi garovi bo'lib, Respublikamiz xalqiga munosib turmush sharoitini yaratib beradi.

Xozirda O'zbekistondagi barcha yengil sanoat korxonalari oldiga katta vazifalar qo'yilgan, bunda tabiiy gazlamalardan zamon talablariga, hamda jaxon standartlari talablariga kiyimlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan dasturlar va tadbirlar ishlab chiqarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti yildan – yilga barqarorlashib bormoqda. Bunga O'zbekistondagi korxonalarni qo'llab – quvvatlash hisobiga erishilmoqda. To'qimachilik va yengil sanoatning 2014 – 2020 yillarga mo'ljallangan rivojlanish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Kontseptsiyaga muvofiq 2020 yilga borib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 6.97 trln. so'mga

oshirish rejalashtirilgan. Bulardan 296 mln. donasi tikuvchilik sanoati mahsulotlari bo'lishi ko'zda tutilgan. Tikuvchilik sanoatining asosiy maqsadi – insonlarning yuqori sifatli va turli assortimentdagi kiyimlarga bo'lган ehtiyojini qondirishdir. Bunday ko'rsatkichga erishishda zamonaviy texnika va texnologiyalar, asbob – uskunalar hamda yetuk malakali mutaxasislar bilan ta'minlangan tikuvchilik korxonalarining o'rni beqiyosdir.

O'zbekistonda to'qimachilik va yengil sanoatni rivojlantirish uchun tabiiy xom ashyo resurslari mavjud. Tabiiy xom ashyo resurslaridan keng foydalangan holda jahon standartlariga to'liq javob beradigan ichki va tashqi bozorlar uchun yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning har bir tarmog'i rivojlanishining asosiy omillaridan biri, ishlab chiqariladigan mahsulotning jahon bozoriga eksport qilinishidir. Eksport qilinayotgan mahsulotlarning 27 foizi tikuvchilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hisobiga to'g'ri keladi. Tikuvchilik sanoati oldiga qo'yiladigan masalalarni yechishda, kiyimni amaliy va ilmiy jihatdan konstruksiyalash ishlari yetakchi o'rin egallaydi, chunki loyihalashning ayni shu bosqichida kiyimga va uning sifatiga qo'yiladigan barcha ijtimoiy va texnik – iqtisodiy talablar to'liq hisobga olinishi shart. Ushbu talablar asosiga yangi kiyim modeli ishlab chiqiladi.

Diplom loyihasida quyidagi qismlardan iborat: Badiiy muhandislik qismi. Muhandis – konstruktorlik qismi. Texnologik qism. Ekologiya qismi. Iqtisodiy qismi.

Diplom loyiha ishidan maqsad: "Suniy mo'ynadan pechvork usulini qollab ayollar kiyimini to'plamini konstruksiysi va ishlab chiqarish texnologik jarayonini loyihalash".

## **I. BADIY MUHANDISLIK QISMI**

### **1.1. TEXNIK TOPSHIRIQNI LOYIHALASH VA BAJARISH UCHUN BOSHLANG'ICH MA'LUMOTLARNI ISHLAB CHIQISH**

Texnik topshiriq – kiyimning asosiy vazifasi, texnik tavsifi, sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqilgan buyumga qo'yiladigan texnik – iqtisodiy talablar, konstruktorlik hujjatlarining bosqichlari, ularning tarkibi va kiyimga qo'yiladigan maxsus talablarni belgilovchi konstruktorlik hujjati.

Loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar:

- loyihalanayotgan obekt nomi –Ayollar ustki kiyimi;
- loyihalanyotgan obyekt vazifasi-Bashang;
- tananing antropometrik xarakteristikasi-168-92-100
- paket material nomi-Mo'yna, to'r

Har bir iste'molchi kiyim sotib olayotganda, shu kiyimga nisbatan o'zining bir qancha talablarini qo'yadi. Ular orasida ayollar kiyim sifatiga juda talabchan bo'lishadi. Shuning uchun birligina kiyim tanloviga ham juda ko'p vaqt sarflashadi. Iste'molchilar doimo yoqtirib va yaxshi ko'rib kiyiladigan liboslar yaratish uchun, dizayner, konstruktor va texnologlar bir qancha kiyim sifat ko'rsatkichlarini o'rghanib chiqishadi.

**Iste'molchi talablari:** funksional, estetik, ergonomik, ekspluatasion talablar.

Kiyimning funksional ko'rsatkichlarga javob bera olishi, uni asosiy vazifasiga va muayyan maqsadiga mosligini, iste'molchining o'lchami, yoshi va to'lalik guruhi xususiyatlariga mosligini ko'rsatadi. Ayollar doimo go'zal, yosh va xushqomat ko'inishga intiladi. Ayollarning libosi yoshiga mos bo'lishiga hattoki uni yosh ko'rsatishiga, o'lcham va qomatiga, uni kasbi va ish faoliyatiga mos bo'lishiga funksional talablarni bajarilishi orqali erishiladi.

**Estetik ko'rsatkichlar** estetik ehtiyoj, go'zallik qonunlariga ko'ra, insonning go'zallikka va ijodga bo'lgan talablarini bildiradi. Estetik ko'rsatkich ayollar kiyimi uchun eng muhim birlamchi ko'rsatkich hisoblanadi. Liboslarning silueti, rangi, bichimi, aksessuarlari, mato fakturalari zamonaviy moda yo'nalishiga mos va estetik jihatidan chiroyli bo'lishi ayollar e'tiborini o'ziga jalb etadi.

**Ergonomik ko`rsatkichlar** buyumning insonga moslashganlik darajasini bildiradi. Kun davomida kiyishga mo'ljallangan kiyimlar iste'molchining hatti harakatlariga, gigienik jihatlariga mos bo'lishi kerak. Ayollar kiyimida ham bu ko`rsatkich albatta inobatga olinishi zarur. Ayollarning aktiv ish – faoliyati davomida hatti harakatlarini chegaralamasligi, ruhiyatiga salbiy ta'sir ko`rsatmasligi, haddan tashqari ko'p aksessuarlardan foydalanib kiyim og'irligini oshib ketmasligi va gigienik jihatdan sog'ligiga zarar keltirmasligi kerak.

Sevimli kiyimni doimiy ravishda va uzoq muddat kiyish ayollarga ham xos xususiyat hisoblanadi. Ayollar kiyimini iste'mol davrini uzoqroq qilishga yordam beradigan talab bu ekspluatatsion talabdir. Ekspluatatsion ko`rsatkichlar ekspluatatsiya davrida kiyimning ishonchlilik ko`rsatkichi detallarning shakl saqlovchanligi, chidamliligi, choklarning pishiqliligi bilan harakterlanadi.

Har qanday kiyim assortimenti kabi ayollar kiyimiga ham iste'molchi talablaridan tashqari texnik – iqtisodiy talablar qo'yiladi. Bu talablar buyumning sifatidan tashqari tan narxiga ta'sir etadi. Bozorga sifatli va arzon kiyimlar yetkazishda bu talablarning ham o'rni juda katta.

Texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlar konstruksiyaning texnik jihatdan mukammallik darajasini, ishlab chiqarish va iste'molchi harajatlarini hisobga olgan holda kiyimni loyihalash va texnologik usullarini bildiradi.

**Texnik – iqtisodiy talablar:** Standartlash va unifikatsiyalash ko`rsatkichilar modellarning konstruktiv va texnologik jihatdan bir – biri bilan bog`lanish darajasini ko`rsatadi. Standartlashning asosoiy vazifalaridan biri barcha yechimlar sonini minimal oqilona yechimlarni keltirishdir, shu bilan birga mahsulotni loyihalashga taylorlashga va ishlatishga sarf harajatlar kamayadi. Loyihalash muddati qisqaradi.

Konstruksiyaning ishlov berishga qulaylik ko`rsatkichi. Mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va foydalanish bosqichlarida barcha mehnat, vaqt va boshqa vositalarning sarf harajatlarini kamaytirishga qaratilgan.

## 1.2. ZAMONAVIY MODA YO'NALISHI TAHLILI

2019 yil bahor – kuz mavsumi moda yo'nalishi asosida ayollar ustki kiyimi modellari o'rganilib chiqildi. Bu yo'nalishda 2019 yil bahor – kuz mavsumi uchun dizaynerlar tomonidan taqdim etilgan kiyim to'plamlari orasida mo'yna va to'r matolardan tikilgan bashang ustki kiyimlar alohida o'rinn egallagan.

Buyum uchun tanlangan mato uni qimmatbaho va estetik jihatdan chiroyli ko'rinishini ta'minlaydi. Bu yil bahor – kuz mavsumi uchun taqdim etilgan mo'ynali ustki kiyimlar klassik, romantik, casual, military uslublarida yaratilgan. Ayollar ustki kiyimi tanlangan uslubiga ko'ra yarim yopishgan, to'g'ri siluetlar tanlangan.

Mo'nalarga rang tanlashda 2019 – 2020 yillarda “Pantone” tomonidan taqdim etilgan ranglar to'plamidan foydalanilgan. Bu ranglar oq, to'q qizil, siyoh rang, qirmizi rang, jigarrang, yashil rang va och pushti ranglardir.

Ustki kiyimda yelka ismi va etak qisimlarida mo'ynalardan ishlov berilgan. Ayollar ustki kiyimlari to'g'ri uzunligi tizzadan uzunroq qilib ishlangan.

Ustki kiyim yeng uzunli  $\frac{3}{4}$ , qilib ishlangan.





2019-2020 yillarda mo'ynalarda ranlarni maxorat bilan ishlatishni talab qilmoqda. Mo'yna ishlab chiqarish sexlarida qolgan qoldiqlarni to'r ustiga yig'ib noananaviy tarzda 'Ayollar ustki kiyimlari' kolleksiyalarini yaratildi. Bu chiqindilarni tog'ri usulda ishlatish. chiqindilar miqdorini kamaytirishga olib keladi.



## **1.3. ESKIZ LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH**

### **1- Taklif Modelga tavsif**

#### **Ayollar ustki kiyimi**

Bu model bahor va kuzga mo'ljallanga ayollar ustki kiyimi.

Silueti: Trapetsiya qilib kengaygan, asosiy gazlama: Mo'yna ,To'r gazlama, ustki kiyimi old bo'lak: Boyin o'mizi modelga asosan o'yilgan yelka qoymali. Yelka qo'ymasi oq rangli mo'ynadan ishlangan, kokrak qo'ymasi kulrang ranli, etagimning yuqori qismida kulrang mo'yna yana takrorlangan, va pastki qismida esa oq m'yna yana takrorlangan. ort bo'lak: o'rta yaxlit bichilgan , Yelka qo'ymasi oq rangli mo'ynadan ishlangan, kurak qo'ymasi kulrang ranli, etagimning yuqori qismida kulrang mo'yna yana takrorlangan, va pastki qismida esa oq m'yna yana takrorlangan Yeng o'tqazma, bir chokli uzunligi 3/4. Yengning yuqori qismida esa to'r va pastki qismida oq rangli mo'yna takrorlangan.

Uzunligi tizzadan yuqorida.

Bu model bo'yi 168-174sm, ko'krak aylanasi 96-98 bo'lgan o'rta yoshli ayollarga tavsiya etiladi.



## **2 - Taklif Modelga tavsif**

### **Ayollar ustki kiyimi**

Bu model bahor va kuzga mo'ljallanga ayollar ustki kiyimi.

Silueti: Trapetsiya qilib kengaygan, asosiy gazlama: Mo'yna, To'r gazlama, ustki kiyimi old bo'lak: Boyin o'mizi modelga asosan o'yilgan yelka qoymali. Yelka qo'ymasi oq rangli mo'ynadan ishlangan, kokrak qo'ymasi sariqva havorangli, etagining yuqori qismida mo'yna yana takrorlangan, va pastki qismida esa oq m'yna yana takrorlangan. Ort bo'lak: o'rta yaxlit bichilgan, Yelka qo'ymasi sariq rangli mo'ynadan ishlangan, kurak qo'ymasi kulrang ranli, etagimning yuqori qismida kulrang mo'yna yana takrorlangan, va pastki qismida esa oq m'yna yana takrorlangan. Yeng o'tqazma, bir chokli uzunligi uzunligi bilakdan. Yengning yuqori qismida qizil mo'ynali va tirsak qismida sariq mo'ynali pastki qismida oq rangli mo'yna takrorlangan.

Uzunligi tizzadan yuqorida.

Bu model bo'yi 168-174sm, ko'krak aylanasi 96-98 bo'lgan o'rta yoshli ayollarga tavsiya etiladi.



### **3 - Taklif Modelga tavsif**

#### **Ayollar ustki kiyimi**

Bu model bahor va kuzga mo'ljallanga ayollar ustki kiyimi.

Silueti: Trapetsiya qilib kengaygan, asosiy gazlama: Mo'yna, To'r gazlama, ustki kiyimi old bo'lak: Boyin o'mizi modelga asosan o'yilgan yelka qoymali.  
Pushti rang yashil rang oq rang va sariq ranglardan iborat yelkadan buyum  
uzunligigacha yo'l yo'l bo'laklar o'tkazilgan. ort bo'lak: o'rta yaxlit bichilgan ,  
Pushti rang yashil rang oq rang va sariq ranglardan iborat yelkadan buyum  
uzunligigacha yo'l yo'l bo'laklar o'tkazilgan Yeng o'tqazma, bir chokli uzunligi  
uzunligi bilakdan. Yengning yuqori qismidan yeng uzunligigacha mo'ynalar  
garizontal tarzda to'r ustiga tikib chiqilgan.

Uzunligi bo'ksa yuqorisida.

Bu model bo'yi 168-174sm, ko'krak aylanasi 96-98 bo'lgan o'rta yoshli  
ayollarga tavsiya etiladi.



## **II. MUHANDIS – KONSTRUKTORLIK QISMI**

### **2.1. LOYIHALANAYOTGAN OB'YEKT PAKETINI KONFEKSIONLASH**

O'zbekiston iqlimi keskin o'zgaruvchan kontinental iqlimdir. Mintaqadagi kunduzgi va tungi, yozgi va qishki havo harorati keskin farqlidir. Yillik havo harorati sezilarli darajada yuqori. Bahor va kuz fasllarida yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sababli o'rtacha nisbiy namlik miqdori 30 – 40 % gacha ko'tariladi. Pasttekislik hududlarida yillik yog'ingarchilik miqdori 120 – 200 mm, cho'l hududlarida 1000 mm gacha yetadi. Sun'iy mo'ynali hayvonlar - tabiiy mo"jizalarni taqlid qiluvchi to'qimachilik mahsulotlari. U kiyim, bosh kiyim, yumshoq o'yinchoqlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Sun'iy mo'ynali kiyimlar to'quv, trikotaj taglik va kimyoviy yoki tabiiy to'qimachilik tolalari, jumladan hayvonlarning tolalaridan tolalar kabi turli xil usullar bilan biriktirilgan trikotaj poydevoridan tashkil topgan.

Xovli bo'yalgan (monofonik), mo'ylovli (ko'p rangli) naqshli naqshli, shu jumladan, turli hayvonlarning mo'yna rangini taqlid qilishi mumkin. Bundan tashqari, mo'yna trim uning kivirma yoki bo'rttirma o'z ichiga olishi mumkin. To'pni kerakli uzunlikka kesib o'tadi, to'quv mato to'qilgan to'quv mashinalarida uchta ip tizimining burma usuli bilan ishlab chiqariladi: asosiy, to'quv va ipni tashkil etuvchi ip. Qoldiqni tuzatish uchun, tuproq noto'g'ri tomonida lateks kabi kino qoplamlari qo'llanilishi mumkin.

Tabiiy mo'ynali kiyimlardan yasalgan kiyimlari va elementlari juda qadrlangan va bir asrdan ziyod vaqt dan beri faol foydalilanilgan, biroq faqat oliy darajadagi shaxslar va jamiyatning eng yaxshi qatlami hashamatli mo'ynalarga ega bo'lishi mumkin edi. 50-yillarda, ikkinchi jahon urushidan so'ng, engil sanoat yangi tug'ilganidan so'ng, sun'iy mo'yna paydo bo'ldi. Vaqtning hozirgi "bolasi", sun'iy mo'ynasi, yangi urushdan keyingi dunyodagi asosiy g'oyalarni birlashtirdi: insonparvarlik, mavjudlik va amaliylik.

Sun'iy mo'ynali kiyimlar juda ko'p turli xil shakl va ranglarga ega: uzun hav, o'rta qoziq va qisqa qoziq, monofonik va ko'p rangli, naqsh va geometrik bosma

naqshlar, oqlangan va naqshli naqshlar, kontrast materiallar va hatto rinstones qo'shimchalarini.

Ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom-ashyolar turiga qarab, tabiiy iplardan sintetik mo'yna va mo'yna: paxta yoki ipak. Paxta teri o'yinchoqlar va boshqa bolalar mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Sintetik mo'yna ko'pincha akrildan yoki uning modifikasiyasidan ishlab chiqariladi va ko'pincha tabiiy tuslar tabiiy ko'rinishga ega bo'lish va uning takabburlik xususiyatlarini yaxshilash uchun tabiiy liflar sintetik tolalarga qo'shiladi. Arizaga ko'ra, quyidagi sun'iy mo'ynalar turlari ajratiladi:

Siz tanlagan turdag'i sun'iy mo'ynadan qat'i nazar, sizga hech qanday hayvon zarar ko'rmaydigan iliq, engil, aşinmaya bardosh beruvchi materiallar beriladi. Yopishtiruvchi usul bilan mo'ynani olish texnologiyasi quyidagilardan iborat. Maxsus karakulelni yotqizish mashinasida rulon shaklidagi buruq shlyalya yostiqli stol ustiga qo'yiladi, so'ngra matoning bo'ylab harakatlanadi va ustiga chiqadi. Bundan oldin, mato polyisobutilen yopishtiruvchi bilan qoplangan. Chilanelni yer bilan kuchli bog'lash bor.

Trikotaj mo'ynali tuproq paxtadan yigirilgan ipni yopish orqali ishlab chiqariladi, ba'zida maxsus ip ishlatiladi (paxta + lavsan + viskon yoki paxta + lavsan). Taralgan bantli xaltadan teran kaskadli tola iplari yerning har bir teshigiga bog'lash orqali amalga oshiriladi. Tarmoqli poliakrilonitril (Nitron, Orlon, Kourtel, Dainel) yoki polyester (poliester) 3.33-0.33 teks dan tayyorlanadi.

To'qimagan taglikdagi mo'yna mato-tikuvchilik matosi bo'lib, u maxsus tufted mashinalarda ishlab chiqariladi. Buning uchun, tayyor mato (mo'yna paxta) tafting mashinasida tufted iplar bilan tikiladi. Shu bilan birga, tuproqning dengiz qirg'og'ida kesilgan va o'ralgan tig'li bir qoziq paydo bo'ldi. Nitrondan 50 teksx x 2 bo'lgan ipning chiziqli zichligi bilan tikuv ipi sifatida. Tufted sun'iy mo'yna asosan qoplama materiali sifatida ishlatiladi.

Faux mo'yna "Malimo" naqshli tikuv mashinalarida ishlab chiqariladi. Yivirgichlar miltillaganda, keyinchalik kesilgan va qayta ishlanadigan biriktirilgan qoziq hosil bo'ladi.

Sun'iy mo'ynali kiyim-kechak tuvalni mato ramkasiga yopishtirib, keyin taroqlash orqali hosil bo'ladi. To'qimagan mo'ynali kiyim-boshlarning barcha turlari kiyim-kechak, shlyapa va hokazolarni joylashtirish uchun ishlatiladi.

Har xil ishlab chiqarish usullarining xususiyatlarini, mahsulorligiga ko'ra yaroqsiz mo'ynalarini baholash natijasida ular trikotaj asosda mo'yna afzalroqdir degan xulosaga kelishadi.

Shunday qilib, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning murakkabligi to'qimadan ko'ra 10 barobar yuqori va trikotajdan 4,8 baravar yuqori. Trikotaj mo'ynali kiyimlar 30% gilamga va to'qilmagan holda - 2,5 martaga nisbatan yaxshiroq issiqlik himoyalash xususiyatlariga ega. Aşinma qarshilik jihatidan naqshli mo'ynali kiyimlar 3 barobar, dokumasiz - 10 baravar ortiqdir.



## Tavsiya qilingan materiallar tavsifi

### 2.1 – jadval

№	Material nomi	Tola tarkibi		10 sm da zichligi		O'riliishi	Kengligi,sm	Og'irligi,gr/m <sup>2</sup>
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.
1.	To'r	poliamid		-	-	trikotaj	150	35
2.	<b>Bluzkalik gazlama (Krep shifon)</b>	kapron	Kapron	70	100	polotno	140	130
3.	<b>Shimlik gazlama (Rekardo)</b>	lavsan		360	640	atlas	150	80

Nº	Nomlanishi	Artikul	Namuna						
1.	Mo'yna	-							
2.	To'r	-							
3.	Krep shifon	52108							
4.	Rekardo	86040							
5.	Molniya tasma	L=20mm							
6.	I p	LX-33							
Konfektion karta <table border="1" style="float: right; margin-top: -20px;"> <tr><td>O'zg</td><td>List</td><td>Xuliat</td><td>Imzo</td><td>Sana</td><td>List</td></tr> </table>				O'zg	List	Xuliat	Imzo	Sana	List
O'zg	List	Xuliat	Imzo	Sana	List				

## **2.2. ASOSIY KONSTRUKSIYA QURISH USULINI ASOSLAB TANLASH**

Kiyim konstruksiyalash murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi. Bu jarayon obyekti bo'lib doimiy harakatda bo'luvchi "odam – kiyim" sistemasi hisoblanadi. Evolyutsiya jarayonida odam qomati, uni ehtiyojlari, kiyinish uslublari, moda o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlarni kiyim konstruksiyalashda hisobga olmasdan iloj yo'q. Konstruksianing sifatli va yuqori aniqlikda bajarilishi dizaynerning g'oyasini to'liqligicha amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shu qatori konstruksiya qurish usulini to'g'ri tanlash ham katta ahamiyat ega.

Ilk marotaba 1891 yilda "Kelajak" nomi bilan ro'yxatdan o'tgan, hozirgi kunda "Muller & son" nomi bilan ataladigan konstruksiyalashning nemischa usuli aynan shunday takomillashib boradigan usul hisoblanadi. Bu usulda Germaniya ayollar ustki kiyimini ishlab chiqaradigan sanoat birlashmasining yordamida amalga oshirilgan 1994 yilgi antropometrik o'lchamlar asosida konstruksiya quriladi. Asos konstruksiya qurishga 2006 yilda kiritilgan takomillashtirilishlar, doimiy ravishda qo'shimchalarning antropometrik va moda sanoatidagi o'zgarishlar natijasida yangilanib turilishi faqatgina shu usulda kuzatiladi. Bu usul asosida zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi ham ishlab chiqilgan. Bu usul ommaviy hamda individual ishlab chiqarishda ham birdek qo'l keladi. Bu usulda aholining antropometrik o'zgarishidan hamda kiyim modellarining o'zgarishidan tashqari mato xususiyati ham e'tiborga olinadi. Bu usuldan "Graphis" va "Assist" kabi avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarida keng qo'llaniladi.

Bu usulda asosiy o'lchamlar o'lchash usulida, qolgan o'lchamlar esa berilgan matematik formulalar yordamida hisoblab topiladi. Bu usulda o'lcham olish qoidalari bilan rasmi qo'llanma asosida berilgan. Yelka kiyimlari uchun asosiy o'lchamlar qatoriga bo'y –  $P$ , ko'krak aylanasi –  $O_r$ , bel aylanasi - $O_t$ , bo'ksa aylanasi -  $O_b$ , yeng uzunligi -  $\Delta_p$  kiradi. Bu usulda konstruksiya qurish oson. Bu usulda yelka kiyimlar uchun asosiy konstruksiya o'ngdan chap tomonga qaratib,

bel kiyimlari chapdan o'ng tomonga qaratilib quriladi. Nuqtalar raqamlar bilan belgil anadi. Konstruksiya qurish ketma – ketligi keng va tushunarli qilib izohlab yozilgan. Har bir kiyim assortimenti uchun qo'shimchalar jadvali kiritilgan. Bundan tashqari na'muna uchun keltirilgan modellarning qanday modellashtirilishi ham ko'rsatilgan.

Umumlashtiradigan bo'lsak, bu usul butun dunyo tan olib, moda sanoatida keng qo'llanilib kelinayotgan uslublardan biridir.

### **2.3. ASOSIY KONSTRUKSIYA CHIZMASINI QURISH UCHUN DASTLABKI MA'LUMOTLAR**

#### **Individual figuraning o'lchamlari**

**2.2 - jadval**

T/r	O'lcham nomi	Belgilanishi	Qiymati (sm)	
			Bluzka	Ustki kiyim
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	4	5
1.	Bo'y	P	168	168
2.	Ko'krak aylanasi	O <sub>r</sub>	84	92
3.	Bel aylanasi	O <sub>T</sub>	68	76
4.	Bo'ksa aylanasi	O <sub>b</sub>	94	100
5.	Yeng uzunligi	D <sub>p</sub>	59.6	60
6.	O'miz chuqurligi	$\Gamma_{\text{пп}}$	19	19.5
7.	Bel uzunligi	D <sub>сп</sub>	40	40
8.	Bo'ksa balandligi	B <sub>b</sub>	61.8	62.6
9.	Buyum uzunligi	D <sub>и</sub>	62	80
10.	Ort o'miz uzunligi	D <sub>rc</sub>	10	10
11.	Ko'krak balandligi	B <sub>rII</sub>	26	27
12.	Old bel uzunligi	D <sub>тпII</sub>	41.4	42
13.	Orqa kenglik	Ш <sub>c</sub>	16	18.5
14.	O'miz kengligi	Ш <sub>пп</sub>	8.6	11
15.	Ko'krak kengligi	Ш <sub>r</sub>	17.4	20
16.	Yelka kengligi	Ш <sub>п</sub>	10	11
17.	O'miz balandligi (chizmadan o'lchanadi)	B <sub>пп</sub>	37	38.5
18.	O'miz uzunligi (chizmadan o'lchanadi)	D <sub>пп</sub>	43	44.5
19.	O'miz kengligi	Ш <sub>пп</sub>	8.6	11

<b>20.</b>	Yeng uchi kengligi	III <sub>ph</sub>	40	30
<b>21.</b>	Yeng qiyalamasi balandligi	B <sub>ok</sub>	17	18
<b>Shim</b>				
<b>22.</b>	Shim tizza chizigidagi kengligi	Шк	46	
<b>23.</b>	Shimning pocha kengligi	III <sub>H</sub>	30	
<b>24.</b>	Yon tomondan uzunlik	Д <sub>сб</sub>	106	
<b>25.</b>	Otirgich sathi balandligi	B <sub>c</sub>	27,5	
<b>26.</b>	Oyoqning ichkari tomondan uzunligi	Д <sub>н</sub>	80,3	
<b>27.</b>	Tizza nuqtasining balandligi	B <sub>k</sub>	60	
<b>28.</b>	Old yarim kenglik	III <sub>пн</sub>	20	
<b>29.</b>	Ort yarim kenglik	Шз <sub>п</sub>	22	

### Asos konstruksiya qurish uchun qo'shimchalar

**2.3 – jadval**

T/r	Qo'shimchalar nomi	Belgilanishi	Qiymati (sm)	
			Bluzka	Ustki kiyim
<b>1.</b>	O'miz chuqurligiga qo'shimcha	Π <sub>грп</sub>	1 – 1.5	1.5-2
<b>2.</b>	Orqa kenglikka qo'shimcha	Π <sub>шс</sub>	0.5-1	1-1.5
<b>3.</b>	O'miz kengligiga qo'shimcha	Π <sub>шшр</sub>	1.5 – 2	2.5-3.5
<b>4.</b>	Ko'krak kengligiga qo'shimcha	Π <sub>шр</sub>	1 – 1.5	2

### 2.4. ASOS KONSTRUKSIYANI QURISH VA HISOBI

Loyihalanayotgan model asosiy konstruksiyasi hisobi

**2.4 – jadval**

T/r	Kesim nomi	Hisob formulasi	Qiymati	
			Ko'yvak	Syurtuk
Bazis to'ri.				
<b>1.</b>	1 – 2	Vertikaliga $\Gamma_{\text{пп}} + \Pi_{\text{грп}}$	21	21.5
<b>2.</b>	1 – 3	Д <sub>сп</sub>	38.5	40
<b>3.</b>	1 – 4	В <sub>б</sub>	58	58.5
<b>4.</b>	1 – 5	Д <sub>и</sub>	100	104
1,2,3,4,5 – nuqtalardan Gorizantalig avertikal chiziqlarga perpendikulyar holda chiziqlar o'tkaziladi.				
<b>5.</b>	3 – 6	2sm	2	2
<b>6.</b>	4 – 7	2sm	2	2
<b>7.</b>	5 – 8	2sm	2	2
<b>8.</b>	1, 6, 7, 8 – nuqtalartutashtirilib 2 –			

	nuqtadanchiqqangorizantalchiziqbilantutashgannuqtada 9 – nuqtabelgilanadi			
<b>9.</b>	9 – 10	Gorizantalchiziqbo'ylab III <sub>c</sub>	18	18
<b>10.</b>	10 – 11	2/3 III <sub>пп</sub>	8	7
<b>11.</b>	11 – 11a	6 smdan10 smgacha	6	6
<b>12.</b>	11a – 12	1/3 III <sub>пп</sub>	3.5	5
<b>13.</b>	12 – 13	III <sub>r</sub>	19	21
<b>14.</b>	9 – 11 hamda 11a – 13 nuqtalarorasidagimasofa ½ O <sub>r</sub> +Π <sub>cr</sub> gatengbo'lishikerak			
<b>15.</b>	13 – 14	Gorizantalchiziqbo'ylabo'ngtomonga 1/10 O <sub>r</sub> + 1	9	9
<b>16.</b>	10 – nuqtadan vertikaliga yuqoriga chiziq chizilib 17 – nuqtabelgilanadi. Vertikaliga pastga va yuqoriga chiziqlar chiziladi. 11 – 43, 11a – 43a, 12 – 34 – 38, 13 – 37 – 41 – 46, 14 – 24 – 42.			
<b>17.</b>	1 – 15	Д <sub>rc</sub> + 0.5	7	6.7
<b>18.</b>	15 – 16	2 sm	2	2
1	2	3	4	5
<b>19.</b>	Ort bo'yino'miziyo shaklidachiziladi.			
<b>20.</b>	17 – 18	1 – 1.5 sm	1.5	1.5
<b>21.</b>	16 – 19	18 – nuqtaorqali III <sub>п</sub> + Π <sub>шс</sub> +(0 – 1sm)	14	14
<b>22.</b>	10 – 18 kesmani markazi topilib kurak chizig'I chiziladi va chap tomonga 1 sm chiziladi.			
<b>23.</b>	10 – 20	(10 – 18)/2	10	6
<b>24.</b>	20 – 21	1.3 sm	1.3	1.3
<b>25.</b>	19, kurak chizig'I uchi, 21 va 11 – nuqtalar leykaloyordamida tutashtirilib ort yeng o'mizi chiziladi			
<b>26.</b>	12 – 22	10 – 20	5.3	5.5
<b>27.</b>	12 – 23	(10 – 18) – 2 sm	17.5	18.5
<b>28.</b>	24 – 25	Д <sub>пп</sub> II	41	45
<b>29.</b>	25 – 26	B <sub>r</sub> II	26.5	27
<b>30.</b>	26 – nuqtani va 12 – nuqtani mos holda aylana markazi sifatida 25 – va 23 – nuqtalardan yoy chiziladi			
<b>31.</b>	23 – 27	1/20 O <sub>r</sub>	5	4.6
<b>32.</b>	27 – 28	25 – nuqtadan chiqqan yoy bilan tutashtirib (16 – 19) – (0 – 1sm)	12	13
<b>33.</b>	27 – 22 nuqtalar tutashtiriladi va shu kesim yarmida 1 – 1.5 sm uzunlikda perpendikulyar ichkariga chiziq chiziladi. 27, yordamchi chiziq bosh nuqtasi, 22 va 11a nuqtalari leykalo yordamida old yeng o'mizi chiziladi			
<b>34.</b>	25 – nuqtani chap tomonga gorizantaliga davom ettirib 13 – nuqtadan vertikaliga yuqoriga chizilgan chiziq bilan kesishgan nuqtasida 29 – nuqta belgilanadi.			
<b>35.</b>	29 – 30	Д <sub>rc</sub> + 0 – 0.5	5	6

<b>36.</b>	29 – 31	$\Delta_{rc+}$ (1 – 1,5 sm)	6	7.5
<b>37.</b>	29 – 12 yordamchi chiziq bilan tutashtiriladi va chiziq davomida $\Delta_{rc+}$ (0 – 0,5 sm) o'lchab 31 a – nuqta belgilanadi. Shundan so'ng 30, 31 va 31a – nuqtalar leykalo yordamida tutashtirilib old bo'yin o'mizi chiziladi.			
<b>38.</b>	28 – 32	25 – 30	3.8	3.5
<b>39.</b>	26 – 33	26 – 32	26.5	27
<b>40.</b>	30 va 33 – nuqtalar tutashtiriladi.			
<b>41.</b>	34 – 35	$\frac{1}{4} O_T - 1sm$	19	19
<b>42.</b>	38 – 39	(34 – 35) + 2sm	21	21
<b>43.</b>	35 – 36	Old va ort detallar oralig'I hisobga olinmagan holda $\frac{1}{2} O_T + (2 - 4sm)$	42	42
<b>44.</b>	39 – 40	Old va ort detallar oralig'I hisobga olinmagan holda $\frac{1}{2} O_6 + (2 - 3sm)$	53	53
<b>45.</b>	7 – 40 kesma orasidagi masofa bo'ksa chizig'iga yetmagan uzunlikni bildiradi. Shu uzunlik teng ikkiga bo'linib old va ort bo'ksa yon chiziqlariga qo'shib belgilanadi.			
<b>46.</b>	37 – 35 va 6 – 36 kesmalar orasidagi masofa old, ort yon qirqimlarining bel vitochkalarining kengligini beradi.			
<b>47.</b>	Bel chizig'i 1 sm yuqoriga ko'tarilib chiziladi. Ort bo'lak vitochka masofasi $1/3 III_{cn} + 1sm$ uznligi yuqoriga va pastga 15 – 17 sm. Old bo'lak vitochka uzunligi yuqoriga va pastga 15 sm. Leykalo va to'g'ri chiziqlar bilan yon qirqim chiziqlari chiziladi.			
<b>48.</b>	Old va ort bo'lak yelka qirqimlarini moslashtirish uchun, ort yelka qirqimiga parallel holda 1sm yuqoriga ko'tarib chiziladi va 16a – 19a, old yelka qirqimi 1 sm pastga yelka qirqimiga parallel holda chiziladi va 30a – 33a, 32a – 27a nuqtalari hosil bo'ladi.			
<b>49.</b>	16 a – nuqtadan 3 – 5 sm o'lchanib kurak chizig'iga yordamchi chiziq tushiriladi. Shu chiziq kurak chizig'i bilan tutashgan nuqtada kurak vitochkasining uchi bo'ladi. Vitochka kengligi 1.5 sm.			

### Yeng

<b>50.</b>	1 – 2	$B_{OK}$	20.15	18
<b>51.</b>	1 – 3	$\Delta_p$	60	60
<b>52.</b>	3 – 4	2 sm	2	2
<b>53.</b>	2 – 5	(2 – 4) – 1sm	16.45	16.45
<b>54.</b>	1, 2, 3, 5 – nuqtalardan o'ng tomonga gorizontal chiziqlar chiziladi.			
<b>55.</b>	2 – $A_e$	$\frac{1}{4} III_{np}$	3.4	3.4
<b>56.</b>	Belgilangan nuqtadan 1 – nuqtadan chiqqn gorizontal chiziq bilan kesishtirib $\frac{1}{2} \Delta_{np}$ uzunlikdagi chiziqchizilib 6 – nuqta belgilanadi.			
<b>57.</b>	6 – nuqtadan pastga vertikaliga chiziq chizilib mos xolda 7, 8 – nuqtalar belgilanadi.			
<b>58.</b>	1 – 9	(1 – 6)/2 + 1	10.1	10.1

<b>59.</b>	1 – 10	(1 – 9)/2	5.05	5.05
<b>60.</b>	A <sub>е</sub> – 11	(A <sub>е</sub> – 10)/2	8.7	8.7
<b>61.</b>	6 – 12	$\frac{1}{4}$ III <sub>пп</sub> + 0.5 sm	3.9	3.9
<b>62.</b>	7 – 13	1 – 9	10.1	10.1
<b>63.</b>	9 – nuqtadan 11, 12 – nuqtalarga yordamchi chiziqlar chiziladi.			
<b>64.</b>	(2 – 7) kesmaga parallel holda 0.5 sm yuqorida yordamchi chiziq chiziladi.			
<b>65.</b>	12 nuqtadan yordamchi chiziq bo'ylab 0.5 sm belgilanadi va 13 – nuqta bilan tutashtiriladi			
<b>66.</b>	9 – 11 va 9 – 12 kesmalar markazi topiladi va perpendikulyar 1.2 sm va 1 sm yuqoriga chiziladi			
<b>67.</b>	A <sub>е</sub> va S nuqtalari old bo'lak yeng o'mizidan olinadi.			
<b>68.</b>	S nuqtadan 12 nuqtagacha leykalo chiziqlari bilan o'miz shakli chiziladi			
<b>69.</b>	5 – 14	0 – 1 sm	0.5	
<b>70.</b>	4 – 15	0 – 1 sm	0.5	
<b>71.</b>	8 – 16	1 sm	1	
<b>72.</b>	15 – 17	$\frac{1}{2}$ III <sub>пп</sub>	14	
<b>73.</b>	<b>Shim</b>			
<b>74.</b>	1-2	2.5		
<b>75.</b>	1-3	Вл	27,5	
<b>76.</b>	3-4	Вк	29	
<b>77.</b>	1-5	Дсб	100	
<b>78.</b>	5-6	3-4		
<b>79.</b>	5-7	1/10*о6+3	7,8	
<b>80.</b>	7-8	7.8..3.4.6nuqtalardan ongga perpendikulyar chiqazamiz		
<b>81.</b>	8-9			
<b>82.</b>	10-8°	1/10 оw+0.5		
<b>83.</b>	7-11	8 nuqtadan tepaga pastga perpendikulyar chiqazamiz		
<b>84.</b>	6-11	(7-9)/2		
<b>85.</b>	13-14	7-11ga teng		
<b>86.</b>	12-15	11-nuqtadan perpendukulyar	8.75	
<b>87.</b>	12-16	$\frac{1}{4}$ shn-1	7.80	
<b>88.</b>	15-15a			
<b>89.</b>	9-16°	4-8		
<b>90.</b>	10-20	Yon chiziqlar tutashgan 17.18.19		
<b>91.</b>	8a-8b	$\frac{1}{4}$ og+2		
<b>92.</b>	20-21	14-22 nuqtalar ortasi topiladi	19.75	
<b>93.</b>	21-22	Vitochka chlari 0.5 sm suriladi		
<b>94.</b>	11-25	2sm		
<b>95.</b>	25-26	$\frac{1}{4}$ shzb	6.25	
<b>96.</b>	8-27	29 nuqtadan yuqoriga va pastga perpendikulyar chizladi	4	

<b>97.</b>	28-29	Shzb	
<b>98.</b>	35-30	25-29 pastki chiziqdantizza chizigigacha Parallel qilib 2sm kenglikda yon ciziqlar chiziladi, 31.32.33.33a nuqtalar topiladi	
<b>99.</b>	29-35	29 nuqtadan bel chizigigacha tutashguncha chiziq chizildi, shu nuqta 35 nuqta	
<b>100.</b>	30-31	birlashtiriladi	
<b>101.</b>	13-36	-1sm	
<b>102.</b>	35-36	Chiziqlar tutashtiriladi	
<b>103.</b>	37-39	Ort bolak orta qirqimi chiziladi	

## 2.5. LOYIHA OB'YEKTINI KONSTRUKTIV MODELLASH

Asos konstruksiya tanlangan modelga muvofiq quyidagicha modellashtirildi:

### Aylollar ustki kiyimi


Old bo'lakda ko'krak vitochka yon chokka o'tqazildi.  
Yoqa o'mizi qirqimi modelga asosan xosil qilindi.  
Ort bo'lak choc davomida kesim o'rni belgilandi.  
Yeng bir chocli  $\frac{3}{4}$  uzunlikda loyihalandi.

### Bluzka:

Old bo'lak ko'krak yon chokka o'tkazildi.  
Ort bo'lak yaxlit bichildi.  
Bluzkayon qirqimidan kengaytirildi.  
Yeng bir chocli  $\frac{3}{4}$  uzunlikda loyihalandi.

### Shim:

Belda belbog' bilan modellandi.  
Bel qismidan pocha qismiga qarab kengaytirilib modellandi.  
Yon choc davomida molniya tasma qo'yildi.





*Shartli belgilar:*

— AK chiziqlari  
 — MK chiziqlari

List	Xujjat	Imzo	Sana

*Kofta AK va MK*





### *Shartli belgilar:*

AK chiziglari

MK chiziqlari

				KL.001.19
Gzg	List	Xujjat	Imzo	Sana
Chizdi		Yoqubova M.		
Tekshirdi		Ulkanbayeva G.D.		
Raxbar		Ulkanbayeva G.D.		
Tasdiqladi		Mas...		
Ayollar ustki kiyimi AK va MK				1:5
				Lisit List
				listlar
Mo'yna, to'r				TTYeSI Ye5TDF TBKT kaf 10-15 Guruh

## **2.6. ISHCHI HUJJATLARNI TUZISH**

### **2.6.1. Yangi model andozalarini tayyorlash prinsiplari**

Andozalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga konstruktorlik hujjatlarining yaona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi.

Andozalar chizmasi quyidagi ketma – ketlikda bajariladi:

- Model konstruksiyasi batafsil tekshiriladi.
- Chizmaga gazlamaning kirishuvchanligiga bog’liq aniqlik kiritiladi.
- Detallarning nusxasi boshqa qog’ozlarga tushuriladi.
- Asosiy detallarning andozalarining ishchi chizmalari quriladi.
- Ishlab chiqarishga mo’ljallangan andozalar tayyorlanadi.

Andozalarni rasmiylashtirish va texnik talablar:

- Andozaning nomi: Etalon andoza, haqiqiy andoza, ishchi andoza.
- Tikuv buyumning nomi
- Model raqami
- Andoza vazifasi: Asosiy andoza, hosila andoza, yordamchi andoza.
- Detal nomi
- Tikuv buyumning o’lchami
- Modelga tavsiya etilgan bo’y va o’lchamlarning chegaralari
- Detalning gabarit o’lchamlari
- Bazis chiziqlari
- Tanda ipi yo’nalishi va ruxsat etilgan og’ish burchagi
- Detal qirqimlarida choc haqqi
- Nazorat kertiklari
- Spetsifikatsiya bo’yicha detal nomeri
- Konstruktoring familyasi, imzosi va chiqarilgan sana

**2.5 – jadval**

№	Detal va qirqimlar nomi	Chok haqqi nomi va qiymati (sm)					Izoh
		Biriktirma chok	Ag'darma chok	Buklash qayirishga	Qirqishga	Kirishbirish va ishlov berishga	
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.
<b>Ayollar ustki kiyimi</b>							
1.	Old bo'lak: – Bo'yin o'miz qirqimi – Yelka qirqim – Bort qirqim – Yon qirqim – Yeng o'mizi qirqimi	1.0 1.0 1.0		0.7 2.0			
2	Ort bo'lak: – Bo'yin o'miz qirqimi – Yelka qirqim – Yon qirqim – Yeng o'mizi qirqimi	1.0 1.0 1.0		0.7			
3	Yeng: – Yeng qiyamasi qirqimi – yon qirqim	1.0 1.0					
<b>Bluzka</b>							
4	Old bo'lak : – Yelka qirqimi – Yeng o'mizi qirqimi – Yon qirqim – Bo'yin o'mizi qirqim – Etak qirqim	1.0 1.0 1.0	0.7				
				2.0			

5	Ort bo'lak - Yelka qirqimi - Yeng o'mizi qirqimi - Bo'yin o'mizi qirqim - yon qirqim - Etak qirqim	1.0 1.0 1.0 1.0	0.7	2.0			
6	Yeng: - Yeng qiyamasi qirqimi - yon qirqim - pastki qirqim	1.0 1.0		1.0			
7	Adip -Yelka qirqim -Bo'yin o'mizi qirqimi -Pastki qirqim	1.0	0.7				
8	Mag'iz -Yelka qirqim -Bo'yin o'mizi qirqimi -Yon qirqim -Pastki qirqim	1.0	0.7	2.0			
<b>Shim</b>							
9	Old bo'lak - Bel qirqim -Yon qirqim -Odim qirqim -Orta qirqim -Pocha qirqim	1.0 1.0 1.0 1.0		2.0			
2	Ort bo'lak - Bel qirqim -Yon qirqim -Odim qirqim -Orta qirqim -Pocha qirqim	1.0 1.0 1.0 1.0		2.0			
3	Belbog' -yon qirqim -yuqori qirqim -pastki qirqim			1.0 1.0			

## Detallar septsifikatsiyasi


2.6 – jadval

№	Detallar nomi	Detal kodining belgisi	Detallar soni		Izoh
			Andozada	Bichiqda	
1.	2.	3.	4.	5.	6.
<b>Ustki kiyim to'r detallari</b>					
1.	Old bo'lak	01	1	2	
2.	Ort bo'lak	02	1	1	buklov
3.	Yeng	03	1	2	
<b>Ustki kiyim mo'yna detallari</b>					
4.	Old Yelka qo'ymasi	04	1	2	
5.	Old Ko'krak qo'ymasi	05	1	2	
6.	Old Etak yuqori qo'ymasi	06	1	2	
7.	Old Etak pastki qo'ymasi	07	1	2	
8.	Ort Yelka qo'ymasi	08	1	1	buklov
9.	Ort kurak qo'ymasi	09	1	1	buklov
10.	Ort Etak yuqori qo'ymasi	10	1	1	buklov
11.	Ort Etak pastki qo'ymasi	11	1	1	buklov
12.	Yeng pastki qo'ymasi	12	1	2	
<b>Bluzka detallari</b>					
13.	Old bo'lak	13	1	2	
14.	Ort bo'lak	14	1	1	buklov
15.	Yeng	15	1	2	
16.	Adip	16	1	2	
17.	Mag'iz	17	1	1	buklov
<b>Shim</b>					
18.	Old bo'lak	18	1	2	
19.	Ort bo'lak	19	1	2	
20.	Belbog'	20	1	2	


## Andozalarda nazorat kertiklar qo'yish joylarining ro'yxati


2.7 – jadval


<b>Nº</b>	<b>Detallar va qirqimlar nomi</b>	<b>Kertiklar joylanishi</b>
<b>1.</b>	<b>2.</b>	<b>3.</b>
<b>Ayollar usti kiyimi</b>		
<b>1.</b>	<b>Old bo'lak:</b> – Yon qirqim – Bort qirqim – Yeng o'mizi qirqimi	– Vitachka o'rni, Bel bo'ksa chizig'ida. – Mo'yna detallari o'rniga – 22- nuqtada
<b>2.</b>	<b>Ort bo'lak :</b> – Yon qirqim	– Bel, bo'ksa chizig'ida
<b>3.</b>	<b>Yeng:</b> – Yeng qiyamasi – Yon qirqimi	– Cho'qqi nuqtasida, old o'mizga ulash joyida – Tirsak chizig'ida
<b>Bluzka</b>		
<b>4.</b>	<b>Old bo'lak:</b> – Yeng o'mizi qirqimi – Yon qirqim	– 22 – nuqtada – Vitochka o'rni – Bel chizig'ida
<b>5.</b>	<b>Ort bo'lak:</b> – Yon qirqim	– Bel chizig'ida
<b>6.</b>	<b>Yeng :</b> – Yeng qiyalamasi – Yon qirqim	– Cho'qqi nuqtasida – Tirsak chizig'ida



Andazalar







**Detallarda tanda ipining nominal yo'nalishi va  
andozalarda ulardan yo'l qo'yiladigan og'ishlar**

**2.8 – jadval**

<b>№</b>	<b>Detal nomi</b>	<b>Tanda ipining yo'nalishi</b>	<b>Tanda ipining yo'l qo'yilgan og'ishi %</b>
<b>1.</b>	<b>2.</b>	<b>3.</b>	<b>4.</b>
<b>Ustki kiyim</b>			
1.	Old bo'lak	Bel chizig'iga perpendikulyar	0
2.	Ort bo'lak	Bel chizig'iga perpendikulyar	0
3.	Yeng	Tirsak chizig'iga perpendikulyar	0
4.	Old Yelka qo'ymasi	Xalqa yo'naliishiga parallel	2
5.	Old Ko'krak qo'ymasi	Xalqa yo'naliishiga parallel	2
6.	Old Etak yuqori qo'ymasi	Xalqa yo'naliishiga parallel	3
7.	Old Etak pastki qo'ymasi	Xalqa yo'naliishiga parallel	3
8.	Ort Yelka qo'ymasi	Xalqa yo'naliishiga parallel	2
9.	Ort kurak qo'ymasi	Xalqa yo'naliishiga parallel	2
10.	Ort Etak yuqori qo'ymasi	Xalqa yo'naliishiga parallel	3
11.	Ort Etak pastki qo'ymasi	Xalqa yo'naliishiga parallel	3
12.	Yeng pastki qo'ymasi	Xalqa yo'naliishiga parallel	3
<b>Bluzka</b>			
13.	Old bo'lak	O'rta chiziqqa parallel	1
14.	Ort bo'lak	O'rta beldan parallel	1
15.	Yeng		
16.	Adip	O'rta qirqimga parallel	3
17.	Ort bo'yin o'miz mag'izi	O'rta chiziqa parallel	3
<b>Shim</b>			

<b>18.</b>	Old bo'lak	Shim pochasiga parallel	<b>2</b>
<b>19.</b>	Ort bo'lak	Shim pochasiga parallel	<b>2</b>
<b>20.</b>	Belbog'	Bel qirqimiga parallel	<b>2</b>

## **2.6.2. Loyihalanayotgan modelga gazlama sarflash normasining hisobi**

Tikuvchilik kiyimlari tan narxining 80 – 90 %ni material narxi tashkil etadi. Buni bajarishda material sarfini to'g'ri normallashtirishga bog'liqdir. Gazlama sarfini tejashda andozalar satxini aniq o'lchash 40eom ahamiyatga ega. Andozalar satxini hisoblashning bir necha usullari mavjud:

- Geometrik usulda xar bir andoza satxi mayda 40eometric shakllarga bo'linib, shu shakl satxini alohida – alohida hisoblab chiqiladi va yig'indisi topiladi. Olingan natija ma'lum andozaning yuzasi deb olinadi.
- Mexanik usulda andozalar yuzasi zamonaviy ALT larda hisoblash mumkin.

Diplom loyihasini bajarishda andozalarning yuzasi AutoCAD dasturida aniqlandi.

### **Yangi model andozalarining maydoni (yuzasi)**

2.9 – jadval

Detallar nomi	Detal kodining belgisi	Detallar soni		Detallar maydoni $\text{sm}^2$
		Andozada	Bichiqda	
1.	2.	3.	4.	5.
<b>Ustki kiyim</b>				
Old bo'lak	01	1	2	3794.5
Ort bo'lak	02	1	1	3834.4
Yeng	03	1	2	2177.0
<b>Jami:</b>				<b>F<sub>л</sub>=9806.09</b>
<b>Mo'yna detallar</b>				

Old Yelka qo'ymasi	04	1	2	3900.5
Old Ko'krak qo'ymasi	05	1	2	2906.5
Old Etak yuqori qo'ymasi	06	1	2	4195.6
Old Etak pastki qo'ymasi	07	1	2	3299.9
Ort Yelka qo'ymasi	08	1	1	5366.1
Ort kurak qo'ymasi	09	1	1	2906.9
Ort Etak yuqori qo'ymasi	10	1	1	14195.6
Ort Etak pastki qo'ymasi	11	1	1	3299.9
Yeng pastki qo'ymasi	12	1	2	1269.2
<b>Jami:</b>				<b>6150.2</b>

Yangi model uchun sarflangan materiallarning umumiy normasi va o'rtacha normasi hamda andozalararo chiqitlarning o'rtacha normasi aniqlanadi.

Umumiy norma loyihalanayotgan model xususiyatlariga bog'liq holda aniqlanadi. Andozalararo chiqitlar maydoni yuzasi qo'shiladi 2.10 – jadvalga kiritiladi.

### **Yangi model detallari yoyilmasida andozalararo chiqitlarning hisobi**

#### **2.10 – jadval**

Tarmoq normativlari bo'yicha andozalararo chiqitlar nomi	Andozalararo chiqitlar miqdori, %		
Umumiy norma	15	15	13
Model xususiyatiga qo'shimcha	-	3	2
Yangi model detallari yoyilmasiga oid	15	18	15

andozalararo chiqitlarning jamlangan miqdori (B <sub>H</sub> )			
--	--	--	--

**Yoyilmani bajarishdan avval uning dastlabki uzunligi quyidagicha hisoblanadi:**

To'r                     $\Pi_p = \frac{H_0 np}{IIIp} = \frac{11536.57}{150} = 76.91$

Oq mo'yna                     $\Pi_p = \frac{H_0 np}{IIIp} = \frac{4714.3}{145} = 32.5$

Qora mo'yna                     $\Pi_p = \frac{H_0 np}{IIIp} = \frac{2642.3}{110} = 24$

Bu yerda:

**H<sub>0</sub>np** – bo'rlamaning dastlabki normasi;

**IIIp** – gazlamaning eni, sm.

Bo'rlamaga sarflanadigan materialning dastlabki normasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

To'r                     $H_0 np = \frac{F_{\Pi} \cdot 100}{100 - B_H} = \frac{9806.09 \cdot 100}{100 - 15} = 11536.57$

Oq mo'yna                     $H_0 np = \frac{F_{\Pi} \cdot 100}{100 - B_H} = \frac{3903 \cdot 100}{100 - 17.21} = 4714.3$

Qora mo'yna                     $H_0 np = \frac{F_{\Pi} \cdot 100}{100 - B_H} = \frac{2246 \cdot 100}{100 - 15} = 2642.3$

Bu yerda:

**F<sub>Π</sub>** – andozalar yuzasi, sm<sup>2</sup>

**B<sub>H</sub>** – andozalar orasidagi chiqitlar normativ miqdori

Yoyilmani bajarishda andozalar yoyilmasiga qo'yiladigan maxsus texnik shartlar va talablarga rioya qilinadi. Xususan yoyilma tuzganda gazlama gullariga, tuklar yo'nalishiga, detallarda tanda va arqoq iplarining yo'nalishiga e'tibor beriladi.

Andozalararo chiqitlar foizi quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{To'r} \quad B_{\phi} = \frac{(H_{O\phi} - F_{\pi})}{H_{O\phi}} \cdot 100 = \frac{11443 - 9806.09}{11443} \cdot 100 = 15\%$$

$$\text{Oq mo'yna} \quad B_{\phi} = \frac{(H_{O\phi} - F_{\pi})}{H_{O\phi}} \cdot 100 = \frac{4714.6 - 3903}{4714.6} \cdot 100 = 18\%$$

$$\text{Qora mo'yna} \quad B_{\phi} = \frac{(H_{O\phi} - F_{\pi})}{H_{O\phi}} \cdot 100 = \frac{2618 - 2246}{2618} \cdot 100 = 15\%$$


Bu yerda:

$H_{O\phi}$  – bo'rlamaning haqiqiy normasi,  $\text{sm}^2$

### Detallar yoyilmasining xarakteristikasi:

Buyumning nomi: Ayollar ustki kiyimi	Ko'ylak
Razmer, bo'y va to'lalilik guruhi:	168 – 92 – 100, II to'lalik guruhi
Gazlama fakturasi:	To'r, tukli
Gullarining yo'nalishi:	Bir tomoniga
Yoyilmaning eni:	150sm
To'shma turi:	Yalang qavat
Andazalar aro haqiqiy chiqitlar:	15%, 18%, 15%
Yoyilmaning haqiqiy yuzasi:	11443sm , 4714.6sm , 2618sm.





### *Yoyilma pasporti*

*Buyum nomi- Ayollar ustki kiyimi*

*Antropomestik xarakteristikasi- 168-92-100*

*Gazlama fakturasi- tukli*

*Gullarning yo'nalishi- tepaga*

*To'shamma turi- yalang qavat*

*Andazalararo chiqitlar - To'r 15%*

*Oq mo'yna 18%*

*Qora mo'yna 15%*

*Yoyilma yuzasi- To'r 11443sm<sup>2</sup>*

*Oq mo'yna 4714.9sm<sup>2</sup>*

*Qora mo'yna 2618sm<sup>2</sup>*

*DL.001.19*

*Ayollar ustki  
kiyimi yoyilma  
pasporti*

g	List	Xujiat	Imzo	Sana
hizdi		Yoqubova M		
shirdi		Ulkanbayeva G.D.	<i>[Signature]</i>	
zbar		Ulkanbayeva G.D.	<i>[Signature]</i>	
isdiqladi				

Litera	Massa	Mashtab
		1:10
List	listlar	
TTYosI	Y-001	

### **III. TEXNOLOGIK QISM**

#### **3.1 TIKUV BUYUMLARINI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIK BOG'LIQLIGINI TAHLILI**

##### **3.1.1. Asbob – uskuna va tikish usullarini tanlash va asoslash**

Tikish usullarini tanlashdan avval birinchi navbatda tanlangan kiyim modeliga muvofiq ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan tikish usuli hamda hozirgi kunda ishlab chiqarish oqimlarida va adabiyotlarda tavsiya qilingan ilg'or usullari o'r ganilib chiqiladi.

Tanlangan modelni texnologik tikish tartibini sinchkovlik bilan qilingan tahlil asosida modelga mehnat sarfini kamaytirish va buyumning sifatini yaxshilash maqsadida asbob – uskuna hamda tikish usuli tanlanadi.




Buyum tikish texnologik tartibini tuzishda qo'llanilayotgan asbob – uskuna va ularning kichik mexanizatsiya bilan ta'minlanganligi, avtomat yoki yarimavtomat qurilmalarining ishlab chiqarishda ishlatilishi ko'zda tutiladi. Masalan ip uzilishini, tepki ko'tarilishi va tushishi avtomatlarini yo'lga qo'yish va hokazo.

Yangi yelimli materiallarni birlashtirishda materialga yaxshi ishlov berishi, kiyimning tashqi ko'rinishi yaxshilanadi, sifatini oshirib, ishlab chiqarishga ketgan vaqt ni kamaytiradi.

Dazmollar kiyimning tashqi ko'rinishi sifatlilagini ta'minlaydi. Korxonalarda qo'l ishinining kamligi va maxsus mashinalardan unumli foydalanish korxonaning texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarini ko'taradi. Chunki qo'l ishi uchun vaqt juda ko'p ajratilsa, qo'l ishining ko'payishi mahsulot ishlab chiqarish sarf vaqtiga o'z – o'zidan ta'sir ko'rsatib, korxona unumdorligini kamaytiradi. Shuning uchun maxsus mashinalardan ham foydalanish afzalid

## Buyum tikishda qo'llaniladigan chok turlari

### 3.1 – jadval

Chok turi	Konstruksiyasi	Qo'llash jarayoni	Baxyaqator turi	Asbob – uskuna va moslama nomi va belgisi
1.	2.	3.	4.	5.
Biriktirma chok		Buyum elka va yon choklari	Bir chiziqli ikki ipli moki baxyaqator	“Juki” DDL 555 Yaponiya
Bukma chok		Buyum etagi	Bir chiziqli ikki ipli moki baxyaqator	“Juki” DDL 555 Yaponiya
Yo'rmash		Buyum qirqimlari	uch ipli zanjir baxyaqator	“Juki” MO-6700 Yaponiya
Qo'yma chok		Mo'ynalarni to'r ustiga tikish	Bir chiziqli ikki ipli moki baxyaqator	“Juki” DDL 555 Yaponiya

## Tikuv mashinalarining texnalogik tasnifi

**3.3-jadval**

Asbob- uskuna va ishlab chiqargan zavod	Chok turi	Mashina bosh valining maksimal aylanish tezligi	Baxya uzunligi, mm	Gazlama surgich	GOST 22249-82 bo'yicha igna nomeri	Ip nomeri	Tikilayotgan gazlama qalinligi	Qo'shimcha ma'lumotlar
“Juki” DDL-555	Moki baxyaqator	5500 ayl/min	2-3	Ostki tishli reyka	80	40	2,5 – 4	Tepkini avtomatik ko'tarish va ipni uzish
“Juki” MO-6700	Zanjir baxyaqator	3500	3.5-4	Ostki tishli reyka	100	40	2,5 – 4	Tepkini avtomatik ko'tarish va ipni uzish

### **3.1.2. Buyum tikish texnologik tartibini tuzish**

shuncha ko'p bo'ladi. Bo'linmas operatsiyalarning ixtisosi uni bajarishda qo'llaniladigan asbob – uskuna asosida belgilanadi, razryadi esa ta'rif malaka ma'lumotnomadan foydalanib aniqlandi.

Kiyim tikishni texnologik tartibini tuzishda har bitta buyumni texnologik kartasi tuzib olinadi. Shu operatsiyalarning har bittasi tajriba sexida ko'rib chiqiladi.

Yig'uv bo'limida yengni yeng o'miziga ulash, astarni avraga ulash kabi ishlar amalga oshiriladi.

Pardozlash bo'limida dazmollash, bezatish, ip, chang va dog'lardan tozalash ishlari bajariladi.

Har bitta operatsiya ixtisosi qisqartirib yoziladi: M – mashina, D – dazmol, MM – maxsus mashina, Q – qo'l ishi.

Har bir ishning malakasini aniqlash ma'lumotnomada yordamida belgilanadi.

### **Ustki kiyimga ishlov berishni loyihadagi texnologik tartibi**

**3.5 – jadval**

T/r	Bo'linmas operatsiyalar nomi	Ixtisosi	Razryad	Sarf vaqt	Asbob – uskuna (moslamalar)
1.	2.	3.	4.	5.	6.

#### **Ustki kiyim**

##### **Old bo'lakka ishlov berish**

1	Ustki kiyim bort qirqimini bukma chokda tikish	M	3	30	DDL-555 Juki
2	Old bo'lakda yelka ko'krak , etak, yuqori va pastki qo'ymlar o'mini belgilash	Q	2	60	-
